

# **BULUTLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: ZAMONAVIY BIZNESNING KALITI**

*Elmurodov Mukhammadkodir Nurmuhammadovich*

*Qo'qon universiteti talabasi*

*Elmurodov Mukhammadkodir Nurmuhammadovich*

*Student of Kokand University*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda texnologiya va Internet juda tez rivojlanmoqda. Albatta, ularning foydalanuvchilari ham kundan-kunga ko'payib bormoqda. Foydalanuvchi bo'lgan joyda taklif ham bo'ladi, ya'ni talab bo'lgan joyda taklif bo'ladi. Daromadlarini oshirishni istaganlar o'zlari taklif qilishlari kerak. Zamonaviy biznesda texnologiya va Internet yordamida o'z biznesingizni rivojlantirish mumkin. Ushbu maqola bulutli texnologiyalarning kichik biznesga ta'sirini ta'kidlaydi. Ushbu maqolada ekonometrik tahlil asosida bulutli texnologiyalar kichik biznesga qanday ta'sir qilishi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Bulutli texnologiyalar, kichik biznes, ilovalar, model, innovatsiya, ekonometrik tahlil, korrelyatsion tahlil, elastiklik koeffisienti, regressiya.

**Annotation:** Today, technology and the Internet are developing very quickly. Of course, their users are also increasing day by day. Where there is a user, there will also be an offer, that is, where there is a demand there will be an offer. Those who want to increase their income should make their own offers. In modern business, it is possible to develop your business using technology and the Internet. This article highlights the impact of cloud technologies on small businesses. This article examines how cloud technologies affect small businesses based on econometric analysis.

**Keywords:** Cloud technologies, small business, applications, model, innovation, econometric analysis, correlation analysis, elasticity coefficient, regression.

## **KIRISH**

Hozirgi kunda texnologiyalar va internet juda ham jadallik bilan rivojlanmoqda. Albatta ularni foydalanuvchilari ham kundan-kunga ortib bormoqda. Foydalanuvchi bor joyda ya'ni talab bor joyda taklif ham bo'ladi. Daromadini oshirmoqchi bo'lganlar esa o'z takliflarini berishi kerak. Zamonaviy

biznesda texnologiyalar va internetdan foydalangan holda o'z biznesini rivojlantirish mumkin.

Bulutli texnologiyalar hayotning deyarli barcha jabhalariga kirib kelmoqda, xoh u ijtimoiy, xoh professional rivojlanish bo'lsin, u internet bo'ylab tarqalgan serverlarda bulutga asoslangan dasturiy ilovalar orqali ishlaydigan tarmoq hisoblari bo'lsin. Bu Internet bo'ylab tarqalgan serverlarda bulutga asoslangan dasturiy ta'minot ilovalari orqali ishlaydigan katta tarmoq hisoblarini ifodalaydi. Kompaniyangizni bulutga o'tkazishni tanlash biznes operatsiyalarining barcha jabhalariga ta'sir qiladigan muhim tanlovdir.

Bozordagi noaniqlik tufayli kompaniyalar an'anaviy ravishda masshtabni kengaytirish bilan kurashadilar. Bulutli hisoblashning kengayishi kompaniyalarga samarali rivojlanish imkonini beradi. Ya'ni undan foydalanish kompaniya uchun oki qo'shimcha saqlash hajmini sotib olmasdan o'z infratuzilmasi va jihozlarini oshirishi mumkin. Korxonalar bugungi zamonaviy raqobat muhitida samaradorlik, mahsuldorlik va umumiy ish faoliyatini oshirish uchun vositalarga muhtoj va bulutli texnologiya kengayishning moslashuvchan vositalarini taklif etadi.

Bulutli texnologiyalar biznesning rivojlanishi uchun quyidagicha imkoniyatlarni beradi: masshtablilik, innovatsiya, tejamkorlik, moslanuvchanlik, sanoatning uzliksiz o'sishi, bir nechta xizmat takliflari vas hu kabi qulayliklarni beradi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Ushbu maqolada, ko'plab xorijiy va o'zbek adabiyotlari o'rganildi. Ulardan biri bu C.Lakshmi Devasenaning "Bulutli texnologiyalarning biznes rivojlanishiga ta'sirini o'rganish" noomli maqolasidir. Bu maqolada quyidagilar yoritilgan, bulutli ilovalar kamroq xarajat qiladi, chunki mijoz ularni ishga tushirish uchun barcha apparat va dasturiy ta'minot, jihozlar yoki to'liq texnologiya konfiguratsiyasi va texnik xizmat ko'rsatish uchun to'lov to'lashi shart emas. Cloudni qabul qilish mijozga ko'proq ilovalar, yangi loyihalar va innovatsiyalarni joylashtirishga e'tibor qaratish imkonini beradi. Bulutli hisoblash oddiy g'oya, lekin u har qanday biznesga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Preethi Josephina Mudialbaning "Bulut texnologiyasining korxonalarni avtomatlashtirishga ta'siri" maqolasida bulutli texnologiyalarni korxonalariga avtomatlashtirish uchun bir nechta loyihalar o'rganilgan va ko'rib chiqilgan. Maqoladagi loyihaning maqsadi, mavjud texnologiyalarni, bulutli serverni va iBeaconni birlashtirish, tashkilotlarda davomatni qabul qilish jarayonini avtomatlashtirishga yordam beradigan mobil ilovani ishlab chiqishdir. Loyihaning

birinchi qismining maqsadi bulutli serverni o'rnatish bo'lib, u bulutli hisoblash g'oyasini ularni qo'llab-quvvatlaydigan infratuzilmaga egalik qilish va qo'llab-quvvatlash zarurati bilan bog'liq bo'lmagan AT xizmatlari takliflarini tavsiflash usuli sifatida taqdim etadi. Loyihaning ikkinchi qismi davomatni qabul qilish jarayonini avtomatlashtirishga yordam beruvchi android asosidagi mobil ilovani ishlab chiqish edi. Avtomatlashtirish nafaqat qo'lda qilingan xatolar va samarasizlik tufayli yuzaga keladigan xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi, balki tashkilot ichida shaffoflikni ta'minlaydi va soxta davomat kabi korrupsion amaliyotlarning yuzaga kelishiga o'rin qoldirmasdan davomat tizimining ishonchliligini oshiradi. Bundan tashqari, ilova kompaniyaning ro'yxatdan o'tgan a'zolari bo'lmagan shaxslarni aniqlash orqali xavfsizlik tekshiruvi vazifasini ham bajaradi.

Mohsen Attaran va Jeremy Woodslarning “Bulutli hisoblash texnologiyasi: Internetdan foydalangan holda kichik biznes faoliyatini yaxshilash” maqolasi. Ushbu maqola kichik biznes uchun bulutli hisoblash texnologiyasini qabul qilishning uch bosqichini ko'rib chiqadi va bulutli platformani tanlashda e'tiborga olish kerak bo'lgan asosiy omillarni ko'rib chiqadi. Rivojlanayotgan texnologiyalar va tendentsiyalarni, kichik biznes uchun bulutli hisoblash texnologiyasini joriy etishning afzalliklari va kamchiliklari, bulutga asoslangan yechimni qabul qilishda kichik biznes duch keladigan qiyinchiliklar, bulutli hisoblash texnologiyasini ishlab chiqish va joylashtirish uchun zarur bo'lgan asosiy amalga oshirish bosqichlari, kichik biznesda bulutli hisoblash texnologiyasidan keng tarqalgan foydalanish ko'rib chiqiladi va kichik biznes uchun bulutga asoslangan xizmatlardan foydalanish mumkin bo'lgan vaqtni tejash vositalari ta'kidlanadi.

## **METADOLOGIYA**

Tadqiqot kichik biznes ya'ni o'quv markaz misolida olib borildi. Bu tadqiqot ekonometrik tahlil orqali o'rganiladi. “IDEAL” o'quv markazi 2018 yildan buyon o'z faoliyatini olib bormoqda. O'quv markazda asosan tabiiy va aniq fanlarga ixtisoslashgan kurslar tatbiq etilgan. O'quv markaz yana onlayn kurslarni ham tadbiq etgan. Bu kurslar orqali o'quvchilar uyida o'tirgan holda, internet orqali va bulutli texnologiyalar yordamida o'z darslarini olib boradilar. Quyida bu o'quv markazning daromadi va unga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot davomida,  $Y$  va  $X$  ko'rsatkichlarning bog'liqlik zichligi korrelyatsion tahlili,  $y = a_0 + a_1 x + \varepsilon$  regressiya tenglamaning  $a_0$  va  $a_1$  parametrlari, student t-taqsimoti, elastiklik koeffitsienti, approksimatsiyaning o'rtacha xatoligi, Fisher mezonini va yana bir qancha ishlar olib borildi.

“IDEAL” o’quv markazining daromadini (\$ da) Y deb belgilanib olindi. Unga ta’sir etuvchi omillar X qilib belgilanib olindi.

Yillar	O’quv markazning yillik umumiy daromadi (Y)	O’quv markazning yillik onlayn daromadi (X)
2017	10800	432
2018	16800	1200
2019	21600	4800
2020	25920	23760
2021	33600	14400
2022	50160	21120
2023	63000	30000

### *Korrelyatsion tahlil*

Korrelyatsion tahlil ikkita omil o’rtasidagi (juft bog’liqlikda) hamda natijaviy omillar bilan boshqa ko’p omillar o’rtasidagi (ko’p omilli bog’liqlikda) bog’liqlikning zichligini miqdoriy jihatdan aniqlashda iborat. Korrelyatsiya – bu tasodifiy kattaliklar o’rtasidagi unda tasodifiy kattaliklardan birining o’zgarishi boshqasining matematik kutishi o’zgarishiga olib keluvchi statistic bog’liqlik.<sup>1</sup>

O’quv markazning onlayn daromadi va yillik daromadi ko’rsatkichlarning bog’liqlik zichligi korrelyatsion tahlil orqali aniqlandi. Korrelyatsion koeffisienti ( $r_{xy}$ )ni topish uchun quyidagi formulalardan foydalanildi;

$$r_{yx} = \frac{\overline{yX} - \bar{y} * \bar{x}}{\sigma_x * \sigma_y}$$

bu yerda:

$$\sigma_x = \sqrt{\frac{\sum (x_i - \bar{x})^2}{n}} \quad \sigma_y = \sqrt{\frac{\sum (y_i - \bar{y})^2}{n}}$$

Yuqoridagi formulalar asosida hisoblanganda, Korrelyatsion koeffisienti ( $r_{xy}$ )= 0,8605664 hosil bo’ldi. Demak, o’quv markazning yillik onlayn daromadi, yillik umumiy daromadiga to’g’ri va kuchli bog’langan. Empirik tahlil natijasiga

<sup>1</sup> Sh.I.Mustafakulov, H.N.Sabirov, Ekonometrika I. O’quv qo’llanma.-T.: “Ilm-fan va innovatsiya” 2022, 232 bet.

asosan o'quv markazning onlayn daromadi ortishi o'quv markazning yillik daromad hajmini sezilar darajada ortishiga olib kelmadi.

### ***Regression tahlil***

Regression tahlil bog'liqlikning unda natijaviy omilning o'zgarishibir yoki bir necha omillarning ta'siri bilan shartlangan, natijaviy omilga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa barcha omillar ko'pligi esa doimiy va o'rtacha qiymat sifatida qabul qilinadigan tahliliy shaklini aniqlashdan iborat.<sup>2</sup>

Chiziqli model parametrlarni topish uchun regression bog'lanishdan ya'ni quyidagi formulalardan foydalanildi:

$$a_1 = \frac{\overline{y\bar{x}} - \bar{y} * \bar{x}}{\overline{x^2} - \bar{x}^2}$$

$$a_0 = \bar{y} - a_1 \bar{x}$$

Ushbu formulalar bo'yicha MS Excel dasturi yordamida ko'rib chiqilganda,  $a_1 = 1.371554584$  ga  $a_0 = 12943.6811$  ga tengligi aniqlandi.

$$y = a_0 + a_1 x + \varepsilon$$

Yuqoridagi natijalar orqali ekonometrik model hosil qilindi:

$$y = 1.371554584 * x + 12943.6811$$

Demak, o'quv markazning yillik onlayn daromadi 1 birlikka oshsa, o'quv markazning yillik umumiy daromadi 12943.6 ga oshadi. Bu yerda  $a_1$  modelimizning konstantasi hisoblanadi. Agar o'quv markazning yillik onlayn daromadi 0 ga tenglashsa, o'quv markazning yillik umumiy daromadi 12943.6 ga tenglashadi.

### ***Styudent t-taqsimoti***

Regressiya tenglamasi parametrlarining statistik ma'nodorligini baholash Styudent t-kriteriyasi yordamida amalga oshirildi va har bir ko'rsatkich uchun ishonchlilik intervallari aniqlash uchun ishlatiladi. Quyidagi formulalar orqali ko'rsatkichlar hisoblandi:

$$t_a = \frac{a}{m_a}; t_b = \frac{b}{m_b}; t_r = \frac{r_{xy}}{m_r}.$$

Parametrlarning tasodifiy xatolari quyidagi formulalar bilan hisoblanadi:

---

<sup>2</sup> Sh.I.Mustafakulov, H.N.Sabirov, Ekonometrika I. O'quv qo'llanma.-T.: "Ilm-fan va innovatsiya" 2022, 232 bet.

$$m_a = \sqrt{\frac{\sum (y - \hat{y}_x)^2}{n-2} * \sum x^2}{n * \sum (x - \bar{x})^2} = \sigma_{qol} \sqrt{\frac{\sum x^2}{n * \sum (x - \bar{x})^2}};$$

$$m_b = \sqrt{\frac{\sum (y - \hat{y}_x)^2 / (n-2)}{\sum (x - \bar{x})^2}} = \frac{\sigma_{qol}}{\sqrt{\sum (x - \bar{x})^2}};$$

$$m_r = \sqrt{\frac{1-r^2}{n-2}}.$$

t-statistikaning haqiqiy  $t_{haq}$  va kritik (jadval)  $t_{jad}$  qiymatini solishtirib ko'rsatkichlarni qabul qilinadi yoki rad etiladi.

Agar  $t$  belgining topilgan asl qiymatlari uning jadval qiymatidan katta bo'lsa (ya'ni  $t_a > t_{jadv}$ ,  $t_b > t_{jadv}$ ,  $t_{r_{xy}} > t_{jadv}$ )  $a$  va  $b$  parametrlar statistik ma'nodor hisoblanadi.

Degrees of freedom ( $\nu$ )	Amount of area in one tail ( $\alpha$ )							
	0.0005	0.001	0.005	0.010	0.025	0.050	0.100	0.200
1	636.6192	318.3088	63.65674	31.82052	12.70620	6.313752	3.077684	1.376382
2	31.59905	22.32712	9.924843	6.964557	4.302653	2.919986	1.885618	1.060660
3	12.92398	10.21453	5.840909	4.540703	3.182446	2.353363	1.637744	0.978472
4	8.610302	7.173182	4.604095	3.746947	2.776445	2.131847	1.533206	0.940965
5	6.868827	5.893430	4.032143	3.364930	2.570582	2.015048	1.475884	0.919544
6	5.958816	5.207626	3.707428	3.142668	2.446912	1.943180	1.439756	0.905703
7	5.407883	4.785290	3.499483	2.997952	2.364624	1.894579	1.414924	0.896030
8	5.041305	4.500791	3.355387	2.896459	2.306004	1.859548	1.396815	0.888890
9	4.780913	4.296806	3.249836	2.821438	2.262157	1.833113	1.383029	0.883404
10	4.586894	4.143700	3.169273	2.763769	2.228139	1.812461	1.372184	0.879058
11	4.436979	4.024701	3.105807	2.718079	2.200985	1.795885	1.363430	0.875530
12	4.317791	3.929633	3.054540	2.680998	2.178813	1.782288	1.356217	0.872609
13	4.220832	3.851982	3.012276	2.650309	2.160369	1.770933	1.350171	0.870152
14	4.140454	3.787390	2.976843	2.624494	2.144787	1.761310	1.345030	0.868055
15	4.072765	3.732834	2.946713	2.602480	2.131450	1.753050	1.340606	0.866245
16	4.014996	3.686155	2.920782	2.583487	2.119905	1.745884	1.336757	0.864667
17	3.965126	3.645767	2.898231	2.566934	2.109816	1.739607	1.333379	0.863279

*1-rasm. Student t-taqsimoti jadvali*

Parametrlarni ishonchliligini tekshirish uchun yuqoridagi student  $t$  jadvalidan foydalanildi. Bu yerda 95% aniqlikda hisoblandi. Parametrlar natijasi jadvaldagi 1.894579 dan yuqori bo'lsa ishonchli, aksi bo'lsa ishonchsiz bo'ladi.

$$t_a = 3.778009; t_b = 2.037907; t_{r_{xy}} = 3.778009.$$

Demak, natijalarni t-styudentning jadval qiymatiga solishtirilganda ko'rsatkichlar baland bo'lgani uchun ishonchli hisoblanadi va ko'rsatkichlar qabul qilinadi.

### ***Fisher F-kriteriyasi***

Regressiya tenglamasining "ma'nodorligini" baholash uchun Fisherning  $F$ -kriteriyasidan foydalaniladi. Fisherning  $F$ -kriteriyasi quyidagi formula orqali topiladi:

$$F_{\text{haqiqiy}} = \frac{r_{xy}^2}{1-r_{xy}^2} * (n-2), n \geq 3.$$

Fisherning  $F$ -kriteriyasi jadval qiymati –  $F_{\text{jadv}}$  topiladi. Agar ushbu  $F_{\text{haqiqiy}} > F_{\text{jadv}}$  tengsizlik o'rinli bo'lsa regressiya tenglamasi statistik ma'nodor hisoblanadi. Bu tadqiqotda  $F_{\text{haqiqiy}} = 14.27335811$  ga teng bo'ldi.

**F Distribution critical values for P=0.05**

Denominator														
	Numerator DF													
DF	1	2	3	4	5	7	10	15	20	30	60	120	500	1000
1	161.45	199.50	215.71	224.58	230.16	236.77	241.88	245.95	248.01	250.10	252.20	253.25	254.06	254.19
2	18.513	19.000	19.164	19.247	19.296	19.353	19.396	19.429	19.446	19.462	19.479	19.487	19.494	19.495
3	10.128	9.5522	9.2766	9.1172	9.0135	8.8867	8.7855	8.7028	8.6602	8.6165	8.5720	8.5493	8.5320	8.5292
4	7.7086	6.9443	6.5915	6.3882	6.2560	6.0942	5.9644	5.8579	5.8026	5.7458	5.6877	5.6580	5.6352	5.6317
5	6.6078	5.7862	5.4095	5.1922	5.0504	4.8759	4.7351	4.6187	4.5582	4.4958	4.4314	4.3985	4.3731	4.3691
7	5.5914	4.7375	4.3469	4.1202	3.9715	3.7871	3.6366	3.5108	3.4445	3.3758	3.3043	3.2675	3.2388	3.2344
10	4.9645	4.1028	3.7082	3.4780	3.3259	3.1354	2.9782	2.8450	2.7741	2.6996	2.6210	2.5801	2.5482	2.5430
15	4.5431	3.6823	3.2874	3.0556	2.9013	2.7066	2.5437	2.4035	2.3275	2.2467	2.1601	2.1141	2.0776	2.0718
20	4.3512	3.4928	3.0983	2.8660	2.7109	2.5140	2.3479	2.2032	2.1241	2.0391	1.9463	1.8962	1.8563	1.8498
30	4.1709	3.3159	2.9223	2.6896	2.5336	2.3343	2.1646	2.0149	1.9317	1.8408	1.7396	1.6835	1.6376	1.6300
60	4.0012	3.1505	2.7581	2.5252	2.3683	2.1666	1.9927	1.8365	1.7480	1.6492	1.5343	1.4672	1.4093	1.3994
120	3.9201	3.0718	2.6802	2.4473	2.2898	2.0868	1.9104	1.7505	1.6587	1.5544	1.4289	1.3519	1.2804	1.2674
500	3.8601	3.0137	2.6227	2.3898	2.2320	2.0278	1.8496	1.6864	1.5917	1.4820	1.3455	1.2552	1.1586	1.1378
1000	3.8508	3.0047	2.6137	2.3808	2.2230	2.0187	1.8402	1.6765	1.5811	1.4705	1.3318	1.2385	1.1342	1.1096

### ***2-rasm. Fisher F-jadvali***

Bu tadqiqotda kuzatuvlar soni (n) 7 ga tengligi sababli,  $F_{\text{jadv}} = 5.5914$  bilan taqqoslanadi. Bunda  $F_{\text{haqiqiy}} > F_{\text{jadv}}$  shart bajarildi. Demak, qurilgan regressiya tenglamasining ma'noga ega ekanligi haqida xulosa qilish mumkin.

### ***Approksimatsiyaning o'rtacha xatoligi***

Approksimatsiyaning o'rtacha xatoligi - natijaviy belgini hisoblangan qiymatlarini haqiqiy qiymatlaridan o'rtacha og'ishi.<sup>3</sup>

<sup>3</sup> I.Habibullayev, A.M.Jumayev, Ekonometrika amaliy mashg'ulot uchun o'quv qo'llanma-T.: "Iqtisod-Moliya" 2020, 176 bet.

Tuzilgan modelning sifatini approksimatsiyaning o'rtacha xatoligi formulasi orqali baholanadi. Quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\bar{A} = \frac{1}{n} \sum \left| \frac{y - \hat{y}_x}{y} \right| * 100\%$$

Natija  $\bar{A} = 22.4\%$  ga teng bo'ldi.  $\bar{A}$  ning mumkin bo'lgan qiymatlari 12% dan katta bo'lganligi sababli tuzilgan modelning sifat yaxshi emas deb baholanadi.

### ***Elastiklik koeffitsienti***

Chiziqli bo'lmagan funksiyalar ichida iqtisodiy tadqiqotlarda eng ko'p foydalanadigan funksiya, bu  $y = a * x^b + \varepsilon$  darajali funksiya. Bunga sabab, uni chiziqli ko'rinishga keltirish mumkin va undagi "b" parametr aniq iqtisodiy ma'noga ega bo'lib, u *elastiklik koeffitsienti* deb ataladi. "b" koeffitsientning qiymati - omil belgi 1% ga o'zgarganda, natijaviy belgi o'rtacha necha foizga o'zgarishini ko'rsatadi.<sup>4</sup>

Elastiklik koeffitsienti quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\bar{\varepsilon} = a_1 \frac{\bar{x}}{\bar{y}}$$

Olib borilayotgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'quv markazning onlayn daromadi 1% ga o'sishi, o'quv markazning yillik umumiy daromadini 0.59% ga ortishiga olib keladi. Tadqiqot barcha mezonlardan muvaffaqiyatli o'tdi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shu aytish mumkinki, o'quv markazning yillik onlayn daromadi, o'quv markazning yillik umumiy daromadiga kuchli bog'langan. Ekonometrik modelda ko'rish mumkinki, o'quv markazning yillik onlayn daromadi 1 birlikka oshsa, o'quv markazning yillik umumiy daromadi 12943.6 ga oshishini ko'rsatdi. Bu ekonometrik model shuni anglatadiki, hozirgi kunda kichik biznes egalari ko'proq e'tiborini onlayn xizmatlarga, bulutli texnologiyalarga qaratishi kerakligini, bular yordamida o'z daromadlarini ko'paytirishi mumkin ekanligini yuqoridagi tadqiqotda ko'rib o'tildi. Buning uchun yurtimizda internet bilan ta'minlanganlik darajasi yuqori bo'lishi kerak. Bulutli texnologiyalar yordamida o'quv markazlar o'z onlayn darslarini o'tishi mumkin. Bu kabi dasturlar juda ham ko'p. Misol uchun Google Classroom veb xizmati. Bu xizmat o'qituvchi va talabalar o'rtasida fayllarni almashishni osonlashtiradi, topshiriqlarni qog'ozsiz yaratishni va talabani baholashni osonlashtiradi. Buning yana bir xususiyati talabalar kod yordamida kursga taklif qilinishi mumkin. Bu huddi offline kabi

<sup>4</sup> I.Habibullayev, Ekonometrika, darslik-T.: "Iqtisod-Moliya" 2020, 240 bet



sinflarga bo'linib dars o'tish kabidir. Kurs yaratilganda, tegishli foydalanuvchi Google Drive-diskida alohida papka yaratiladi, unda talaba o'qituvchi tomonidan baholash uchun ishni topshirishi mumkin. Bu xizmat mobil ilovalar iOS va Android qurilmalari uchun mavjud va veb sahifasi orqali ham kirib bimalol foydalanishlari mumkin. Bu xizmatdan hamma foydalana oladi, faqat internet hamda telefon yoki kompyuter bilan ta'minlangan bo'lsa bas. Bu kabi foydali bulutli texnologiyalar yordamida masofalar yo'q bo'ladi. O'quvchilar uyidan chiqmagan holda o'zlariga kerakli bilimlarini o'qituvchilaridan olishadi. Kichik biznes egalari mana shunday texnologiyalarni o'zlarining xizmatlari bilan integratsiya qila olishsa, daromadlariga yaxshi ta'sir etishi mumkin. Shuni aytish mumkinki, bulutli texnologiyalardan foydalanish, zamonaviy biznesning kalitidir.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Sh.I.Mustafakulov, H.N.Sabirov, Ekonometrika I. O'quv qo'llanma.-T.: "Ilm-fan va innovatsiya" 2022, 232 bet.
2. I.Habibullayev, A.M.Jumayev, Ekonometrika amaliy mashg'ulot uchun o'quv qo'llanma-T.: "Iqtisod-Moliya" 2020, 176 bet.
3. I.Habibullayev, Ekonometrika, darslik-T.: "Iqtisod-Moliya" 2020, 240 bet
4. Mudialba, Preethi Josephina. "The impact of cloud technology on the automation of businesses." 2016 International Conference on Platform Technology and Service (PlatCon). IEEE, 2016.
5. Devasena, C. Lakshmi. "Impact study of cloud computing on business development." Operations Research and Applications: An International Journal (ORAJ) 1.1 (2014): 1-7.
6. Attaran, Mohsen, and Jeremy Woods. "Cloud computing technology: improving small business performance using the Internet." Journal of Small Business & Entrepreneurship 31.6 (2019): 495-519.
7. Yo'ldoshev, Axrorojon, and Muxammadqodir Elmurodov. "KOMPYUTER TARMOQLARI." INTERNATIONAL CONFERENCES. Vol. 1. No. 4. 2022.
8. The Impact Of Cloud Computing On Business Efficiency Friday, 15 October 202. <https://stefanini.com/en/insights/articles/the-impact-of-cloud-computing-on-business-efficiency>
9. Impacts of Cloud Computing on Businesses. <https://www.linkedin.com/pulse/impacts-cloud-computing-businesses-ocloud-solutions>
10. Reasons Why Cloud Computing Is Important for Business Growth. <https://sam-solutions.us/why-cloud-computing-is-important-for-business/>

11. Elmurodov, M. N., & Tojiyeva, M. M. (2023). Kichik biznes subyektlari faoliyatini tashkillashtirishda moliyaviy hisobning ahamiyati. *Qo 'qon universiteti xabarnomasi*, 44-47.
12. Mukhammadkodir, E. (2023). MAMLAKATIMIZDAGI RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TAHLILI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 314-321.
13. Nuritdinov Jalolxon Tursunboy o'g'li, Xamzaliyev Furqatjon G'ofurjon o'g'li, & Elmurodov Mukhammadkodir Nurmuhammad o'g'li. (2024). AXBOROT IQTISODIYOTI VA ELEKTRON TIJORAT SOHALARIDA YARATILGAN YALPI QO'SHILGAN QIYMAT HAJMINI BAHOLASH. *Kokand University Research Base*, 837–843. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/235>
14. Yo'ldashev Axrorjon, Isoxonova Mashhura, & Elmurodov Mukhammadkodir. (2024). BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING TA'LIMDAGI RO'LI. *Kokand University Research Base*, 595–600. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/400>
15. Akhmadjonov, O., Elmurodov, M., Farhodov, A., & Khoshimov, I. (2022). ISLOM MOLIYASI VA BANKI. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(10), 37-41.
16. Akhmadjonov, O., Elmurodov, M., Koplonov, D., & Egamov, O. (2022). ISLOM MOLIYA TIZIMI BOSHQARUVI. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(10), 42-48.
17. Yo'ldoshev, A., & Elmurodov, M. (2022, July). KOMPYUTER TARMOQLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 4, pp. 71-75).